IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

O‘ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOT MARKAZLARIDA AQIDA ILMIGA OID TADQIQOT

Lapasov Muxammadsodiq
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20095355

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistondagi ilmiy-tadqiqot markazlarida aqida ilmiga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar tahlil qilingan. Unda moturidiylik ta’limoti, hanafiylik maktabi va klassik kalom manbalarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy markazlar faoliyatining sog‘lom e’tiqodni targ‘ib qilish, diniy-ma’rifiy bilimlarni rivojlantirish hamda yoshlarni turli yot g‘oyalardan asrashdagi ahamiyati ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: Aqida, moturidiylik, kalom ilmi, ilmiy tadqiqot, hanafiylik, e’tiqod, ilmiy markazlar, islomshunoslik, diniy meros, mutakallimlar.

Аннотация: В данной статье анализируются научные исследования в области акиды, проводимые в научно-исследовательских центрах Узбекистана. Освещаются основные направления исследований, посвящённых матуридитскому учению, ханафитской школе и классическим источникам калама. Также раскрывается значение деятельности научных центров в распространении здорового вероубеждения, развитии религиозно-просветительских знаний и защите молодёжи от различных чуждых идей.
Ключевые слова: акида, матуридизм, калам, научное исследование, ханафизм, вероубеждение, научные центры, исламоведение, религиозное наследие, мутакаллимы.

Abstract: This article analyzes the studies related to Aqeedah conducted in scientific research centers of Uzbekistan. It highlights the main directions of research devoted to the Maturidi doctrine, the Hanafi school, and classical Kalam sources. The article also reveals the importance of research centers in promoting sound belief, developing religious and educational knowledge, and protecting youth from harmful ideological influences.
Keywords: Aqeedah, Maturidism, Kalam, scientific research, Hanafism, belief, research centers, Islamic studies, religious heritage, theologians.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar, tarixiy va ma’naviy merosni o‘rganish, qadimiy manbalarni tiklash va ommalashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband ilmiy tadqiqot markazlari, Hadis ilmi maktabi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Termiziy islom instituti kabi muassasalar aynan ana shu yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatib, yurtimizning ilmiy va ma’naviy nufuzini yanada yuksaltirmoqda. Ularda ko‘plab qo‘lyozmalar o‘rganilib, tarjimalar amalga oshirilib, xalqaro hamkorlik kengaymoqda.

O‘zbekistonda ilmiy tadqiqot markazlarining faoliyati mamlakatning ilm-fan sohasini rivojlantirish, an’anaviy bilimlarni zamonaviy talqinlar bilan uyg‘unlashtirish va ijtimoiy hayotdagi muammolarga ilmiy yechimlar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot markazlari ilmiy izlanishlarning markaziy platformasi sifatida faoliyat olib boradi, bu orqali nafaqat yangi ilmiy ma’lumotlar ishlab chiqiladi, balki mavjud ilmiy meros tizimli ravishda qayta o‘rganiladi va amaliyotga tatbiq etiladi. Shu jihatdan ular mamlakatning ilmiy-intelektual salohiyatini oshirish va yosh tadqiqotchilarni ilmiy faoliyatga jalb qilishda asosiy rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda ilmiy tadqiqot markazlari turli yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi. Ayrim markazlar tarixiy va diniy merosni tadqiq qilishga ixtisoslashgan bo‘lsa, boshqalari zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Tadqiqot markazlari ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish bilan birga, nashriyot faoliyati, ilmiy konferensiyalar, seminarlar va ilmiy-amaliy loyihalarni tashkil etadi. Shu tarzda markazlar ilmiy bilimlarni jamiyatga yetkazish va ilmiy merosni yosh avlodga yetkazish vazifasini bajaradi.

O‘zbekistonda ilmiy tadqiqot markazlari faoliyati shuningdek xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Markazlar xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etadi, qo‘lyozmalarni tahqiq qiladi, tarjima va sharhlar tayyorlaydi hamda ilmiy jurnallar nashr etadi. Bu orqali O‘zbekistonning ilmiy salohiyati nafaqat milliy, balki global maydonda ham tan olinadi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqot markazlarining faoliyati zamonaviy talablar va ijtimoiy ehtiyojlarga moslashgan holda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Diniy va tarixiy tadqiqot markazlari, xususan, O‘zbekistonning milliy va diniy merosini chuqur o‘rganish, aqida ilmi, kalom va islomshunoslik sohalarida ilmiy ishlarni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Bu markazlarda ilmiy-tahliliy ishlanmalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar va qo‘lyozmalar tahqiqi amalga oshiriladi, talabalarga va ilmiy jamoatchilikka yangi ilmiy yondashuvlar yetkaziladi. Shu tariqa, ilmiy tadqiqot markazlari ilmiy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, zamonaviy chaqiruvlarga javob beruvchi strategiyalar ishlab chiqish va ilmiy maktabni shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi.

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi o‘z tadqiqotlarida kalom, fiqh va tafsir ilmining bugungi kun shartlari hamda ehtiyojlariga javob beradigan holda yangidan barpo bo‘lishida va ilm olamida yangi Moturidiylar, Nasafiylar, Pazdaviylar, Saraxsiylar, Marg‘inoniylar, Yassaviylarning yetishib chiqishida munosib hissasini qo‘shadi. Bu yosh tadqiqotchilar esa O‘zbekistonni o‘tmishdagidek islom tamaddunining markazlaridan biriga aylantiradi. Bu esa kalom ilmini o‘rganuvchilarga muhim ma’lumotlarni bera olish, yot g‘oyalardan qaytmaganlar bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish va ularning da’volariga ilmiy raddiyalar berish bo‘yicha muhim ilmiy-amaliy manba bo‘lib samarali xizmat qiladi.

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi qarori (PQ-4802) asosida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzurida tashkil etilgan ilmiy muassasadir. Markaz Moturidiya ta’limotini o‘rganish, islom ilohiyoti va kalom ilmini tadqiq etish, hamda buyuk allomalar merosini ilmiy asosda tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi.[1]

Markaz o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi, jumladan Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy va ularning izdoshlari tomonidan yozilgan aqida va kalom ilmlariga oid asarlarning tadqiqiga oid ilmiy loyihalarni amalga oshiradi hamda islom dinining ilm-ma’rifat, bunyodkorlik va insoniylikka asoslangan mazmun-mohiyatini ochib berishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni amalga oshiradi.

Shu bilan birga, ilmiy tadqiqot markazlari ilmiy va amaliy izlanishlarni birlashtirib, jamiyatda e’tiqodiy, ma’naviy va intellektual barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo‘shadi. Ularning faoliyati nafaqat ilmiy bilimlarni rivojlantirish, balki yosh tadqiqotchilarni tarbiyalash, ilmiy metodlarni joriy qilish va O‘zbekistonning ilmiy makonini global maydonda mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli ilmiy tadqiqot markazlarining faoliyati mamlakatning ilmiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishi uchun asosiy poydevor vazifasini bajaradi.

Aqida ilmi bo‘yicha tarjima qilingan tadqiqotlardan Abdulqodir Abdur Rahimning 2022-yil nashr qilingan Abu Hafs Umar Nasafiyning “Aqoidun Nasafiya” asari tarjimasi va izohlari risolari, S. Primovning 2021-yilda nashr qilingan “Jumal usul ad-din” e’tiqodiy masalalarning

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4802-son qarori.

umumiy qisqacha bayoni asari tarjimasi va arabcha matni, H.Aminovning 2021-yilda nashr qilingan “Tohir Solih al-Jazoiriyning “AL-Javohir al-kalomiya” moturidiya aqidasiga oid javohirlar” savol-javob shaklidagi risola,[2]

Yangilanayotgan O‘zbekistonda diniy sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida moturudiya ta’limoti manbalarini o‘rganish va bu ta’limotning diniy-ijtimoiy hayotda tutgan o‘rnini ko‘rsatish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Buning natijasi o‘laroq, Imom Moturudiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi olimlari tomonidan “Imom Moturudiyning “Ta’vilot al-Qur’on” tafsiri, Abu Shakur Keshiyning “at-Tamhid fi bayon at-tavhid” asari, “E’tiqod durdonalari” kitobi, hanafiy moturudiy ulamolarining hayoti va ilmiy faoliyati bag‘ishlangan kitoblar nashr qilindi.

O‘zbekistonda ilmiy tadqiqot markazlari mamlakat ilm-fanining rivojlanishida, tarixiy va diniy merosni chuqur o‘rganishda, shuningdek zamonaviy ijtimoiy va ma’naviy muammolarga ilmiy yechimlar ishlab chiqishda markaziy o‘rin tutadi. Ushbu markazlar faoliyati nafaqat tadqiqot ishlari bilan cheklanib qolmay, balki ilmiy kadrlarni tayyorlash, yosh tadqiqotchilarni ilmiy izlanishga jalb qilish va ularning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, ilmiy markazlar O‘zbekistonning intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishda muhim platforma hisoblanadi.

Qarshi davlat universiteti huzurida Imom Nasafiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilgan[3]. U yerda Abu Muin Nasafiy, Abu Hafs Nasafiy, Abul Barakot Nasafiy kabi allomalarning hayoti va ilmiy merosi, xususan, ularning asarlarida kelgan milliy hamda diniy qadriyatlarni xalqchil, ilmiy-ommabop va sodda tilda jamoatchilikka yetkazish maqsad qilingan. Shuningdek, Abu Muin Nasafiyning aqida va kalom ilmi rivojida tutgan o‘rni, uning yot oqimlarning buzg‘unchi g‘oyalariga qarshi kurashda qo‘llagan uslublarini o‘rganish hamda shu asosda islom dinining ma’rifiy mohiyatini ochib beriladi.

A. Allaqulovning “Abu Hafs Nasafiyning “Aqoid” asari va sharhlari tahlili” nomli monografiyasida XI-XII asrda Movarounnahrda ilm-fan rivoji, ushbu jarayonda Abu Hafs Nasafiyning o‘rni, olimning ilmiy merosi tasnifi hamda hanafiy-moturudiylik ta’limotiga oid asarlari mazmunini ochib berishga bag‘ishlangan. Xususan, “Aqoid an-Nasafiy” nomi bilan mashhur asari, uning qo‘lyozmalari, o‘ziga xos xususiyatlari, unga yozilgan sharhlar va ularda ko‘tarilgan masalalarning bugungi kunda mavjud aqidaviy adashgan oqim va toifalarning g‘oyalariga qarshi kurashdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.[4]

Tadqiqot markazlari faoliyati bir necha yo‘nalishda amalga oshiriladi. Ular ilmiy manbalarni o‘rganish, qo‘lyozmalarni tahqiq qilish, tarixiy va diniy merosni tizimli ravishda qayta ishlash, ilmiy monografiyalar, maqolalar, darsliklar va qo‘llanmalarni yaratish bilan shug‘ullanadi. Shu bilan birga, markazlar ilmiy konferensiyalar, seminarlar va xalqaro loyihalarni tashkil etish orqali ilmiy hamkorlikni rivojlantiradi, bu esa O‘zbekiston ilmiy makonining jahon ilmiy hamjamiyatida tan olinishiga yordam beradi.

Shu ma’noda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning eng yorqin namunalaridan biridir. Markaz 2017-yilda tashkil etilgan bo‘lib, u buyuk muhaddis Imom Buxoriy va boshqa ulug‘ allomalarimizdan qolgan

---

[2] Risola F3-202002144 – “Moturidiya ta’limotiga oid aqidaviy matnlarning akademik tarjimasi va sharhlari hamda ularning elektron kutubxonasini yaratish” loyihasi doirasida nashrga tayyorlangan.

[3] https://bukhari.uz/?p=25710&lang=oz.

[4] A. Allaqulov. “Abu Hafs Nasafiyning “Aqoid” asari va sharhlari tahlili” / Monografiya. – Toshkent: O‘zXIA nashriyoti, 2022. – B. 3.

merosni ilmiy asosda o‘rganish, targ‘ib qilish va jahon miqyosida taqdim etish maqsadida faoliyat yuritadi.[5]

Markazda qo‘lyozmalarni izlash, ularni raqamlashtirish, tarjima qilish va nashr etish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, xalqaro ilmiy hamkorlik kengaymoqda, konferensiyalar o‘tkazilmoqda, ilmiy safarlar tashkil qilinayotgani ham diqqatga sazovor. Markaz nafaqat ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanadi, balki yoshlarni ma’naviy va intellektual jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalarni ham amalga oshirib kelmoqda.

Moturidiya ta’limotini o‘rganish va targ‘ib etish borasida ilmiy markaz direktori hamda xodimlari tomonidan ham salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu izlanishlar moturudiya aqidasining nazariy asoslarini yoritish, Abu Mansur Moturudiy va uning izdoshlari merosini ilmiy tadqiq etish hamda bu ta’limotning Movarounnahr ilmiy-madaniy hayotidagi o‘rnini aniqlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Markazda tadqiqotchilar tomonidan aqida ilmi bo‘yicha ko‘lab tadqiqorlar olib borib risola, manografiya, kitoblar hamda tarjima ishlarini amalga oshirganlar. Jumladan, “Islomofobiyani bartaraf etish omillari”, Movarounnahrda Moturidiya kalom ilmi maktabi (monografiya), “Imom Buxoriy. Xalqu af’olil ibod”, Imom Moturidiy (risola), Abu Saloh Nuriddin Hasan ibn Abdulmuhsin Abu Azaba. Ar-Ravzatul bahiyya fiyma baynal Asho’ira val Motrudiya, Moturidiylik haqiqati(risola), “Hijrat tushunchasini soxtalashtirayotganlardan ehtiyot bo‘laylik” (risola), “Vatanga muhabbat – imon alomati” (risola), “Jihodning asl ma’no mohiyati” (risola), “Mutaassiblik va dinda chuqur ketishning oqibatlari” (risola), “G‘uluvning xatarlari” (risola), “Radikalizm va diniy ekstremizmning oldini olish” (zamonaviy uslubiy qo‘llanma), “Abu Barakot Nasafiy” (risola) kabi bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

“Moturudiylik haqiqati” risolasida moturidiylik aqidaviy yo‘nalishining asl mohiyati yoritilgan. Risolada nafaqat Imom Moturidiyning asarlarida kelgan masalalar, balki uning izdoshlari rivojlantirgan moturidiylik maktabining asl maqsadi haqidagi ma’lumotlar bayon qilingan. Risolada avval ilm sabablari bayon etilgan bo‘lib, so‘ng Yaratuvchining yakkayu yagonaligi haqidagi dalillar keltirilgan. Bundan tashqari, ba’zi adashgan toifalarning xato e’tiqodiga raddiya berilgan

Xususan, markaz direktori Sh. Ziyodov tomonidan Abu Mansur Moturudiy hayoti va ilmiy merosiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, uning “Abu Mansur Moturudiy va uning “Kitob ta’viloti” asari” nomli tadqiqotida Imom Moturudiyning tafsir ilmidagi o‘rni hamda “Kitob at-ta’vilot” asarining ilmiy ahamiyati yoritilgan. Ushbu asarda Moturudiyning Qur’on tafsiriga oid qarashlari, tafsir metodologiyasi hamda aqidaviy masalalarni yoritish uslubi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Shuningdek, Sh. Ziyodovning “Abu Mansur Moturudiy yozma merosi va uning “Kitab at-ta’vilot” asari” mavzusidagi tadqiqoti Moturudiy merosini chuqurroq o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda allomaning yozma asarlari, ularning islom ilmlari taraqqiyotidagi o‘rni va ayniqsa “Kitab at-ta’vilot” asarining aqidaviy hamda tafsiriy jihatlari tadqiq etilgan. Mazkur ilmiy ish moturudiya ta’limotining manbaviy asoslarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

Bundan tashqari, olimning “Movarounnahr islom ilmlari rivojida hanafiy ta’limoti” nomli asarida hanafiylik ta’limotining mintaqadagi islom ilmlari taraqqiyotiga ta’siri yoritilgan. Tadqiqotda Movarounnahrda hanafiylik maktabining shakllanishi, uning ilmiy an’analari va aqidaviy qarashlarning rivojlanishidagi o‘rni tahlil etilgan. Bu asar moturudiya ta’limotining hanafiylik bilan uzviy bog‘liqligini ochib berishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 27 martdagi PQ-2855-son qarori. https://bukhari.uz/?page_id=13708&lang=oz.

Sh. Ziyodovning yana bir muhim ilmiy ishi “Abu Mansur Moturudiy // Moturudiya ta’limoti va uning X–XII asrlarda Movarounnahr madaniyatida tutgan o‘rni” nomli tadqiqotidir. Mazkur ishda moturudiya ta’limotining Movarounnahrdagi ilmiy-madaniy jarayonlarga ko‘rsatgan ta’siri, uning jamiyatdagi diniy tafakkur rivojidagi o‘rni va X–XII asrlardagi ilmiy muhitga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda yoritilgan. Markaz direktori va xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar moturudiya ta’limotining tarixiy, nazariy va amaliy jihatlarini chuqur yoritishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Sh. Ziyodovning ilmiy ishlari Abu Mansur Moturudiy merosini tizimli ravishda o‘rganish, moturudiya ta’limotining Movarounnahr ilmiy tafakkuridagi o‘rnini aniqlash hamda ushbu boy ilmiy merosni zamonaviy ilmiy muomalaga olib kirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.[6]

O‘zbekistonda aqida ilmiga oid zamonaviy tadqiqotlar, ayniqsa Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati doirasida sezilarli darajada rivojlanmoqda. Ushbu markaz tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan tarjima va nashr ishlari aqida ilmiga oid ilmiy merosni o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazida tarjima qilingan ilmiy tadiqiqotlardan 2023-yilda Alouddin Nematov tomonidan “Alouddin Kosoniyning “Kosoniy aqidasi” nomli risola, Abu Saloh Nuriddin Hasan ibn Abdulmuhsin Abu Azabaning “Ar-ravvzatul bahiyya fiyma baynal asho’ira val moturudiya (Ash’ariylar va moturudiylar o‘rtasidagi ixtilofli masalalarga doir go‘zal chamanzor)” kitobi tarjima qilinib markaz tomonidan nashr qilingan

Tadqiqotchi Alouddin Nematov tomonidan ikki muhim asar tarjima qilinib, ilmiy muomalaga kiritildi. Birinchisi, Alauddin Kosani qalamiga mansub “Kosoniy aqidasi” risolasi bo‘lib[7], unda islom aqidasi masalalari an’anaviy islom aqidasi ilmi doirasida izchil bayon qilingan. Ushbu asar moturudiylik asoslariga yaqin qarashlarni o‘zida aks ettiradi va aqidaviy masalalarning sodda, lekin chuqur sharhini beradi.

Ikkinchi tarjima esa Abu Saloh Nuriddin Hasan ibn Abdulmuhsin Abu Azaba tomonidan yozilgan “Ar-ravvzatul bahiyya fiyma baynal asho’ira val moturudiya”[8] nomli asardir. Bu kitobda Ash’ariylik va Moturidiylik o‘rtasidagi ixtilofli masalalar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Asar ikki yirik aqidaviy maktab o‘rtasidagi farqlarni muvozanatli tarzda yoritib, ularning umumiy jihatlarini ham ko‘rsatib beradi.

Mazkur tarjimalar O‘zbekistondagi ilmiy-tadqiqot markazlarida aqida ilmiga bo‘lgan e’tibor ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu ishlar diniy merosni asl manbalarga tayangan holda o‘rganish, yosh tadqiqotchilarni ilmiy izlanishga jalb qilish va aqidaviy birlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda islom ilmlarini, xususan aqida va kalom ilmini ilmiy asosda tadqiq etishga katta e’tibor qaratildi. Bu borada respublikadagi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan moturidiylik ta’limoti, ahli sunna aqidasi hamda turli oqim va firqalarning qarashlarini o‘rganishga bag‘ishlangan qator ilmiy maqola va tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan nashr etilayotgan “Imom Buxoriy saboqlari” nomli ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy-adabiy jurnal aqida ilmiga oid tadqiqotlarni yoritishda muhim ilmiy platformalardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur jurnal

---

[6] U. Muhammadaliyev. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi: konstitutsiyaviy kafolatlar va ilmiy merosga mas’uliyat. // https://bukhari.uz/?p=47197&lang=oz.

[7] A. Nematov. Kosoniy aqidasi / Alouddin Kosoniy – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi nashriyoti, 2023. – B. 3.

[8] A. Nematov. Ar-ravvzatul bahiyya fiyma baynal asho’ira val moturudiya. – Toshkent: G’. G‘ulom nomidagi nashriyot, 2023. – B. 3.

yiliga to‘rt marotaba nashr etilib, unda islom ilmlarining turli yo‘nalishlariga oid ilmiy maqolalar chop etib kelinmoqda[9].

Jurnalda chop etilgan maqolalar orasida A. Allaqulovning “Moturidiylikda “takvin” sifati tahlili” nomli maqolasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda moturidiylik ta’limotidagi “takvin” sifati masalasi kalomiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, uning ahli sunna aqidasidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot orqali moturidiy mutakallimlarining Alloh sifatlari haqidagi qarashlari ilmiy asosda ochib berilgan.

Shuningdek, N. Omonovning “Husomiddin Sig‘noqiyning “At-Tasdiq” asarining aqidaviy muhokamasi: Hizbut-tahrir g‘oyalariga raddiya” nomli maqolasida Husam al-Din al-Sighnaqining “At-Tasdiq” asari asosida aqidaviy masalalar tahlil qilingan hamda ekstremistik oqimlardan biri bo‘lgan Hizbut-tahrirning noto‘g‘ri g‘oyalariga ilmiy raddiyalar berilgan. Mazkur tadqiqot sog‘lom aqidani targ‘ib qilish va yoshlarni turli yot g‘oyalardan asrashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqot markazlarining faoliyati zamonaviy chaqiruvlarga javob berishga ham yo‘naltirilgan. Ular diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi mafkuraviy asoslarni yaratish, yoshlar ongini sog‘lom e’tiqod bilan shakllantirish, jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlash va milliy qadriyatlarni ilmiy asosda targ‘ib qilish yo‘nalishlarida faol ish olib boradi. Shu tariqa markazlar nafaqat akademik bilimlarni rivojlantiradi, balki ularni amaliy hayot bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot markazlarining faoliyati innovatsion yondashuvlarni joriy qilish, zamonaviy metodologiyalarni ishlab chiqish va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish bilan ham bog‘liq. Bu esa talabalarga nafaqat tarixiy va diniy bilimlarni o‘zlashtirish imkonini beradi, balki ularda ilmiy tadqiqot olib borish, manbalarni tahlil qilish va mustaqil xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘zbekistonda ilmiy tadqiqot markazlarining faoliyati mamlakatning ilmiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega. Ular ilmiy merosni saqlash va rivojlantirish, zamonaviy chaqiruvlarga javob berish, yosh avlodni ilmiy va e’tiqodiy jihatdan tayyorlash orqali O‘zbekistonning ilmiy makonini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, ilmiy tadqiqot markazlari nafaqat ilmiy izlanishlar, balki mamlakatning milliy va diniy identitetini saqlash hamda rivojlantirishda strategik rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurahim A. E’tiqod durdonalari: - Toshkent. Sharq, 2016. 408 b.
2. Oqilov S. Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy merosi va moturidiya ta’limoti. Monografiya. - Toshkent: “Hilol-Nashr” nashriyoti, 2020. 342 b.
3. Oqilov S. Abul Muin an-Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta'limoti. Monografiya. - Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2008. 181 b.
4. Oqtlov S. Kalom ilmi. - Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2011. 159 b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Aqidat Tahoviya sharhi. -Toshkent: Hilol nashriyoti, 2015. 446 b.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Din nasihatdir. – Toshkent. Hilol-nashr. 2016. 230 b.
7. Husniddinov Z. Islom yo‘nalishlar, mazhablar, oqimlar. O‘quv qo‘llanma -Toshkent: Movarounnahr, 2020. 168 b.
8. Uvatov U. Imom Moturidiy va uning ta’limoti. - Toshkent: Fan, 2000. 48 b.

[9] Jurnal 2019-yil 8-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan # 0057 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

9. Oqilov S. Movarounnahrda moturidiya ta’limotining shakllanish tarixi. - Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi, 2011. 398 b.
10. Oqulov S. Abul Mu’in an-Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta’limoti. -Muharrir nashriyoti, 2018. 182 b.